



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SIRDARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI


**2023- YIL YANVAR-IYUL**

# SIRDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- avgust holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 10 87 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 366 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 33,7 % Guliston shahrida joylashgan.

## 2023- yil 1-avgust holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda



Guliston sh	366
Mirzaobod tumani	119
Sirdaryo tumani	96
Yangiyer sh	90
Guliston tumani	75
Boyovut tumani	71
Sayxunobod tumani	67
Oqoltin tumani	63
Xovos tumani	63
Sardoba tumani	39
Shirin sh	38

606

Bino va inshootlar qurilishi

249

Fuqarolik obyektlarini qurish


232

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Shuningdek, Guliston shahrida 366 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 33,7 %), Mirzaobod tumanida – 119 ta (10,9 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyul uchun)

2023- yilning yanvar-iyul oylarida, Sirdaryo viloyatida jami 1913,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,2 % ni tashkil etdi.




*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.



## 2023- yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022- yilning mos davriga nisbati, mlrd. so'm va foizda




2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida xususan, Guliston shahri (553,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (505,5 mlrd. so'm) va Sirdaryo tumanida (260,8 mlrd. so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## 2023- yilning yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-iyul oylarida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 59,8 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 37,6 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 95,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 2,6 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,1 % ni tashkil etdi.



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

## 2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,9 % yoki 1 510,5 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**339,5**  
mlrd. soʻm

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 339,5 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

**22,5 %**

**1 093,7**  
mlrd. soʻm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 093,7 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 72,4 % ni tashkil etdi.

**72,4 %**

**77,3**  
mlrd. soʻm

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 77,3 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

**5,1 %**

### Yillar kesimida yangi qurilishning hajmi va ulushi

**809,2**  
mlrd. soʻm



**60,1 %**

**62,2 %**



**1 036,1**  
mlrd. soʻm

**1 510,5**  
mlrd. soʻm



**78,9 %**

## 2023- yilning yanvar-iyul oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari ulushi

2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'ycha yuqori hajm, Guliston shahri (422,5 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (406,2 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (223,8 mlrd. so'm) va Yangiyer shahrida (88,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
<b>Sirdaryo viloyat bo'yicha</b>	<b>1 510,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>422,5</b>	<b>28,0</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>74,7</b>	<b>4,9</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>88,7</b>	<b>5,9</b>
<b>Boyovut</b>	<b>37,3</b>	<b>2,5</b>
<b>Guliston</b>	<b>63,3</b>	<b>4,2</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>406,2</b>	<b>26,9</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>33,9</b>	<b>2,2</b>
<b>Sardoba</b>	<b>55,8</b>	<b>3,7</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>31,8</b>	<b>2,1</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>223,8</b>	<b>14,8</b>
<b>Xovos</b>	<b>72,5</b>	<b>4,8</b>



Guliston sh.  
422,5 mlrd. so'm



Sirdaryo tumani  
223,8 mlrd. so'm




Mirzaobod tumani  
406,2 mlrd. so'm

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

## Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 1 144,6 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq **"Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi"** ko'rsatkichi qo'llaniladi..

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 20,6 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,2 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 5,2 % punktga kamayib, 67,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga ko'payib, 11,9 % ni tashkil etdi.



# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, *mlrd. soʻmda*



*Maʼlumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlari ning eng yuqori ulushi Mirzaobod tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 26,9 % ), Guliston shahri (24,1 %) va Sirdaryo tumani (13,2 %) da kuzatildi.



Guliston sh.  
275,9 mlrd. soʻm




Sirdaryo tumani  
151,2 mlrd. soʻm



Mirzaobod tumani  
308,2 mlrd. soʻm

**2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik  
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari**  
*Korxonalar turlari bo'yicha*

**Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm**




**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 14,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 85,6 % 0,3 % punktga kamaydi.

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Maʼlumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 37,1 %), Mirzaobod tumani (26,3 %) va Sirdaryo tumani (14,1 %) da kuzatildi.



Guliston sh.  
268,4 mlrd. soʻm




Sirdaryo tumani  
101,5 mlrd. soʻm



Mirzaobod tumani  
189,1 mlrd. soʻm

## 2023- yilning yanvar-may oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari *Korxonalar turlari bo'yicha*

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 % punktga kamaydi.

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



*Ma'lumot uchun:*  
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Guliston shahri (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 18,7 %), Mirzaobod tumani (16,5 %) va Sirdaryo tumanida (16,3 %) kuzatildi.



Guliston sh.  
9,3 mlrd. soʻm




Sirdaryo tumani  
8,1 mlrd. soʻm



Mirzaobod tumani  
8,2 mlrd. soʻm

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, mlrd. so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

### Jami hajmga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**116,3 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**96,0 %**




Norasmiy sektor

2022-yilning mos davri bilan solishtirganda –  
**112,4 %**

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 339,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,4 % ga ko'payib, 17,7 % ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

## Hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati, yillar bo'yicha

**155,3**  
*mlrd. so'm*  
**2,9 m.**



2021

**254,4**  
*mlrd. so'm*  
**140,5 %**



2022


**339,5**  
*mlrd. so'm*  
**116,3 %**



2023

# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlari

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



## Jamiga nisbatan ulushi



Sirdaryo tumani



Shirin shahri




Mirzaobod tumani

*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Sirdaryo tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 38,1 % ), Shirin shahri (20,7 % ) va Mirzaobod tumanida (20,6 %) qayd etildi.



# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yilning yanvar-iyul oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,2 % to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni tashkil etgan holda 1 437,8 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati, yillar bo'yicha

**1 060,4**

*mlrd. so'm*

**87,2 %**



**2021**

**1 305,3**

*mlrd. so'm*

**105,6 %**



**2022**

**1 437,8**

*mlrd. so'm*


**96,0 %**



**2023**

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

## Hududlarning hajmi, mlrd. soʻm



## Jamiga nisbatan ulushi



Guliston shahri



Mirzaobod tumani



Yangiyer shahri

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Guliston shahrida (530,4 mlrd. soʻm), Mirzaobod tumanida (427,0 mlrd. soʻm) va Yangiyer shahrida (110,1 mlrd. soʻm) qayd etildi.

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

## Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 7,1 % ni yoki 135,9 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ni tashkil etdi. Shundan 69,8 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 119,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 7,4 mlrd. soʻmni va 121,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 58,7 mlrd. soʻmni va 103,9 % ni tashkil etdi.

**130,7**  
*mlrd. soʻm*  
**103,9 %**




**2021**

**105,9**  
*mlrd. soʻm*  
**73,1 %**



**2022**

**135,9**  
*mlrd. soʻm*  
**112,4 %**



**2023**

# 2023- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

## Hududlarning hajmi, mlrd. so'mda



**39,1** mlrd. so'm  
Sirdaryo tumani



**18,0** mlrd. so'm  
Guliston shahri




**15,5** mlrd. so'm  
Xovos tumani

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (39,1 mlrd. so'm), Guliston shahrida (18,0 mlrd. so'm) va Xovos tumanida (15,5 mlrd. so'm) qayd etildi.

# Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyul oylaridagi **hajm, mlrd. so'mda**



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 61,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 1 852,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 3,2 % va 96,8 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Shirin shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiy hajmining 98,3 % ), Mirzaobod tumanida (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,0 % ) va Guliston shahrida (ushbu shahardagi umumiy qurilish ishlarining 97,5 % ) qayd etildi.

## **Qurilish ishlari USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR**

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlariga** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.

**Sirdaryo viloyati Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Tel. 67 236-70-00 (2020)**